ABORT TUSHUNCHASI VA UNING TARIXI

Xakimdjanova Zilola Gayratovna
xakimdjanovazilola@gmail.com
+998946115851

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Abort" ya'ni homilani sun'iy to'xtatishning kelib chiqish tarixi, uni amalga oshirish turlari hamda unga bo'lgan qarashlarning shakllanishi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada abortga nisbatan axloqiy, diniy, falsafiy qarashlar va tendensiyalar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Abort, qadimgi davr, "gippokrat qasamyodi", o'rta asr, cherkov, Pro-life, Pro-choice, reproduktiv salomatlik.*

Abort – bu homilaning o'z-o'zidan muddatidan oldin yoki sun'iy to'xtatish jarayoni hisoblanadi. Abortning ikki xil turi mavjud:

1.Spontan – tabiiy ravishda, homila rivojlanishida muammoli holatlar kuzatilganda;

2. Sun'iy ya'ni induksiya qilingan abort – maxsus tibbiy yoki jarrohlik yo'li bilan amalga oshirilgan.

Abortning amalda qo'llanilishi tarixan turlicha kechgan. Homilaning to'xtatilishi yozma tarixdan oldingi davrlarda ham mavjud bo'lib, diniy marosimlar hamda jismoniy usullar orqali amalga oshirilgan.[1]

Abortning ilk amaliyotda qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar esa, qadimgi Mesopotamiya va Misr manbaalarida uchraydi. Jumladan, Misrda yozilgan **Ebers papirusi** (mil. avv. 1550-yillar) dagi ma'lumotlarga ko'ra, homilani tushirish jarayonida turli xil o'simlik va mahsulotlardan foydalanilgan. Xususan, bunday holatda ayolga pishgan no'xat urug'i, piyoz, ba'zi dorivor o'simliklardan tayyorlangan damlamalar ichirish orqali amalga oshirilgan. Mesopotamiyada esa, bu jarayon haqidagi ma'lumotlar "Xamurappi qonunlar" to'plamida qayd qilingan, ya'niki agar homila ayol tomonidan sababsiz ravishda nobud qilinadigan bo'lsa, uning holatidan kelib chiqib jazo yoki jarimalar belgilangan.[2]

Qadimgi Yunoniston jamiyatida abortga nisbatan qarash o'zgacha bo'lgan. Jumladan, yunon faylasufi Aristotel bu haqida o'z fikrlarini bildira turib, agar oilada bola soni ko'payib ketsa, oila qaroridan kelib chiqib, homilani sun'iy ravishda tushirish

[1] Riddle J. M. Eve's Herbs: A History of Contraception and Abortion in the West. Harvard University Press, 1997, - B. 267

[2] Kramer S. N. History Begins at Sumer. University of Pennsylvania Press, 1981, - B. 89

amaliyotiga ruxsat qilingan. Biroq, bu homila hayotga ega bo‘lishidan avval amalga oshirilishi lozimligi qayd qilingan.[3]

Ushbu jamiyat tibbiyotining asoschilaridan biri, Gippokrat qarashlarida abortga nisbatan qat’iy ehtiyotkorlik bilan yondashilgan. Uning hozirgi kunga qadar saqlangan “Gippokrat qasamiyodi”da “Men hech kimga zararli vosita bermayman, ayolga homilasini tushirish uchun vosita bermayman”- degan fikrlari keltirilgan.[4]

Qadimgi Rimda abort keng tarqalgan bo‘lsada, davlat tomonidan nazorat qilinmagan. Homilaning taqdiri ota qaroriga bog‘liq bo‘lgan, ya’ni bola ota mulki hisoblangan.[5]

O‘rta asrlarga kelib, insonlar ongida yangi diniy qarashning shakllanishi abort masalasining diniy tomondan tahlil qilinishi va cheklanishiga olib keldi. Katolik cherkov vakillari homilaning sun’iy ravishda tushurilishini gunoh va axloqiy nuqson sifatida baholashgan. Cherkov mezonlaridan kelib chiqib, bu jarayonga qat’iy taqiqlar qo‘yilgan. O’rta asr Yevropa mamlakatlarida abort homilaga jon kirgunigacha bo’lgan davrda cherkovdan yashirin tarzda olib borilgan. Ayollar maxfiy tarzda qadimgi davr an’anasida qo‘llanilgan dorivor o‘simliklar, pishgan no‘xat urug‘i va boshqalardan foydalanib ushbu jarayonni amalga oshirgan. [6]

XVIII-XIX asrlarga kelib, dunyo mamlakatlariga kirib kelgan yangi nafas, ya’ni, ilm-fan taraqqiyoti tibbiyot sohasiga ham qator yangilik va usullarni olib kirdi. Abortni amalga oshirish tibbiy asoslar yordamida tizimli tarzda olib borildi. Qolaversa, ushbu davrda bu jarayonga nisbatan davlat nazorati kuchaytirilib, qonuniylashtirila boshlandi. Xususan, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida abort jarayoni qonunan taqiqlandi. Ayni paytda abort amaliyotini nazoratga oluvchi tashkilotlar vujudga keldi. Yevropa statistikasiga ko‘ra ushbu davrda tug‘ish jarayonida kesarcha usulining qo’llanilishi oqibatida onalar o‘limining oshib ketishi natijasida 1852-yili Parij tibbiyot akademiyasida sun’iy abortga ruxsat berilishi yuzasidan yig‘ilish tashkil qilindi. Bu jarayon Yevropa tibbiyotida sun’iy abortga ruxsat berilishi konsepsiyasining ishlab chiqilishiga asos bo‘ldi.[7] Bu davrda jarrohlik usullarining rivojlanishi, antiseptika va gigiyena qoidalarining takomillashtirilishi abort jarayoning xavfsizligini ta’minladi. Biroq, jamiyatda ikki yondashuv vujudga keldi, ya’niki, tibbiy jihatdan abort xavfsiz usullarda tashkil qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlat cheklovlari kuchaydi.[8]

[3] Riddle J. M. Eve’s Herbs: A History of Contraception and Abortion in the West. Harvard University Press, 1997, - B. 292
[4] Miles Sh. Hippocratic Writings. Penguin Classics, 2004, - B. 87
[5] Shorter E. A History of Women’s Bodies. 1982, - B. 94
[6] McIntosh, M. K. Medical Ethics in the Middle Ages. Cambridge University Press. 2001, - B. 78
[7] Белкина Е. А. Этико-философский анализ специфики дилемм биоэтики на примере проблемы прерывания беременности. Калужский государственный университет им. Циолковского. 2011/ №20 (115)
[8] Dobbs v. Jackson Women’s Health Organization, 597 U.S. (2022).

Zamonaviy globallashuv davriga kelib, gender maslalarining aktuallashuvi ayollarning reproduktiv huquqlarini dolzarb kun mavzusiga aylantirdi. Bu borada Sovet Rossiyasi 1920-yilda davlat kasalxonalarida abort amaliyoti uchun huquqiy ruxsat bergan dastlabki davlat bo‘ldi. Aslida esa, bu jinoiy abortlarga qarshi chora sifatida amalga oshirilgan edi.[9]

Abortga doir eng muhim huquqiy burilish – bu 1973-yilda AQSh Oliy sudi tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq, ayollarning abortga bo‘lgan huquqi AQSh konstitutsiyasi orqali kafolatlanishi bo‘ldi.

XXI asr boshlarida abort masalasi global sog‘liqni saqlash muammosiga aylandi. Bu davrda abort jarayoniga nisbatan ikki xil qarash rivojlandi, ya’ni **Pro-life** – “hayotni himoya qilish tarafdorlari” yoki “homila hayotini ustuvor deb biluvchi qarash tarafdorlari”, **Pro-choice** – “tanlash huquqini qo‘llab-quvvatlovchilar” yoki “ayolning reproduktiv tanlov erkinligini himoya qiluvchi pozitsiya vakillari”.[10]

Xulosa qilib aytganda, abortning kelib chiqish tarixi insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, jamiyat asosini shakllantiruvchi ayolning huquqiy maqomini belgilab beradi. Abort xususidagi qarashlarda biror to‘g‘ri to‘xtam va yechimga kelinmagan. Shu boisdan bu fenomen bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu jarayon haqidagi turli yondashuv va qarashlarda ham yagona yechim topilmagan.

Adabiyotlar roy‘xati

1. Riddle J. M. Eve’s Herbs: A History of Contraception and Abortion in the West. Harvard University Press, 1997, - B. 267
2. Kramer S. N. History Begins at Sumer. University of Pennsylvania Press, 1981, - B. 89
3. Miles Sh. Hippocratic Writings. Penguin Classics, 2004, - B. 87
4. Shorter E. A History of Women’s Bodies. 1982, - B. 94
5. McIntosh, M. K. Medical Ethics in the Middle Ages. Cambridge University Press. 2001, - B. 78
6. Белкина Е. А. Этико-философский анализ специфики дилемм биоэтики на примере проблемы прерывания беременности. Калужский государственный университет им. Циолковского. 2011/ №20 (115)
7. Dobbs v. Jackson Women’s Health Organization, 597 U.S. (2022).
8. Thomson J.J. A Defense of Abortion. 1971, - B. 54

[9] Белкина Е. А. Этико-философский анализ специфики дилемм биоэтики на примере проблемы прерывания беременности. Калужский государственный университет им. Циолковского. 2011/ №20 (115)
[10] Thomson J.J. A Defense of Abortion. 1971, - B. 54